

## KITOBXONLIKNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

*Ilmiy rahbar: Turon universiteti  
o'qituvchisi Surayyo Shodiyeva*

*Turon universiteti talabasi  
Mamayusufova Shaxrizoda*

### ANNOTATSIYA:

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kelajak yosh avlodni ma'naviyatli va ma'rifatli qilib tarbiyalashda kitobxonlikning o'ziga xos ahamiyati va bugungi kunda kitobxonlikni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish bo'yicha olib borilayotgan bir qancha samarali usullar, kitoblarning insonlar hayotida qanchalik ahamiyati katta ekanligi, kitob mutolaasi insonni barkamollik sari yetaklashi haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Kitob, kitobxonlik, ma'rifat, ma'naviyat, kitob mutolaasi, qonun, yosh avlod, loyiha, tanlovlari.

**Annotation:** In this article is a unique importance of reading in spiritual and enlightenment and more effective ways to promote reading today and how important book lives are in the lives of books the book reading will lead to a beast of the book reading.

**Key words:** Book, reader, enlightenment, spirituality, book category, law, youth generation, project, telegren.

**Абстрактный:** В этой статье будущее является уникальной важности чтения в духовном и просвещении, и ряд эффективных способов продвижения читателя, насколько важные книги в жизни людей, приведут книгу к совершенству.

**Ключевые слова:** Книга, читателя, просвещение, духовность, книжное дело, право, поколение молодежи, проекты, проекты.

Kitob insonning ma'rifatini ma'naviyatini boyitadigan xazinalardan biridir.

Kitob bizlarni o'zgacha olamlarga sayohat qilishga, dunyoga yangicha nazar bilan boqishga imkon yaratadi. Kitobni o'zgacha mehr bilan mutolaa qiladigan insonlar, haqiqatan ham, kamolotga yetadigan insonlardir. Kitob bu shunchaki qog'oz emas, balki bilimlarning sarchashmasi sanaladi. Kitob o'qish so'z boyligini oshirish va fikrlarni aniq ifodalash qobilyatini rivojlantirish orqali nutqning ravonligini ta'minlaydi. Kitob mutolaasi insonni o'zligini anglashga hamda maqsadlarini aniqlab olishiga yordam beradi. Kitob o'qishning ta'siri juda ham samarali bo'lib, insonning shaxsiy intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kitob o'qiganda ham unga shunchaki nazar bilan qaramasdan, g'ayrat bilan o'qish lozimdir. Kitobni anglamasdan yodlab olgan inson, o'z qo'li bo'la turib oldidagi suvni icholmayotgan insonga o'xshaydi. Kitob ma'lum bir shaxsning o'z tushunchalarini yana-da boyitishga va o'ziga bo'lgan ishonchini ortishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv jarayonida texnologiyalar rivojlanib, ma'lumotlar oqimi kengaygan bir davrda kitobxonlik ahamiyati yana-da ortib bormoqda. Internet orqali hech qanday qiyinchiliksiz ma'lumotlarni olishimiz mumkin, biroq kitoblar orqali aniq dalillarga tayanilgan holatdagi faktlarni bilib olishimiz mumkin. Hozirgi kunda yoshlarning kitob o'qishga targ'ib qilish uchun ko'plab ma'naviy va ma'rifiy tadbirlar uchrashuvlar va tanlovlardan tashkil etilmoqda. Bulardan, ayniqsa, "Yosh kitobxon" "Kitobxon talaba," "Kitobxon oila" va boshqa shunga o'xhash turli tanlovlardan ko'plab yoshlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Bunday imkoniyatlarning yaratilishi yoshlarni o'zlariga bo'lgan ishonchlarini juda ham ortishiga, o'zligini anglashga va o'z maqsadlari tomon dadil borishga undaydi. Kitob o'qiydigan yoshlarga avtomashina sovg'a qiladigan mamlakat yana qayerda bor? Yurtboshimiz tomonidan biz yoshlarga ana shunday imkoniyatlarning yaratilishi esa bizga o'zgacha ruh bag'ishlaydi. Davlatimiz rahbari asosiy e'tiborini ma'rifatga, yoshlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor bermoqdalar. Zero, yurtimiz bayrog'ini balandlarga ko'tarish, vatanimiz nomini jahon miqyosida tanitish biz yosh avlodning qo'lidadir. Ma'lumki, davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan yoshlarga yaratib

berilayotgan imkoniyatlar kelajak avlodning hayotda o'z o'rinalarini topishga va o'z ilmlari yo'lida irodali, matonatli hamda intiluvchan bo'lishga undaydi. Biz o'z yurtimiz kelajagi haqida qayg'urayotgan bo'lsak, shu yurt kelajagining poydevori bo'lmish farzandlarimizni yoshligidanoq bilimga qiziqishini shakllantirish yomonliklardan uzoqlashtirish hamda ularning o'zлари qiziqtirgan sohaga yo'naltirish va shu sohaga ko'plab ko'nikmalarni berish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab turishimiz lozimdir. Axir aytganlarku: "Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh" deb. Farzandlarning ilmli, zehnli, ma'rifatli bo'lishlari uchun ularning ota-onasi ham oz bo'lsada ilmli bo'lishlari lozim. Kitob - bu bizning hayot deya atalmish sinovlarga, qiyinchiliklarga to'la bo'lgan yo'limizda qo'siz va oyoqsiz bizga yo'lboshchilik qiladigan hamda yo'limizni shamchiroq kabi yoritib turadigan eng ulug' xazinalardan biridir. Bu shamchiroqni yoqish esa insonning o'ziga bog'liqdir. Kitob - bu nafaqat ma'lumot manbayi, balki insoniyatning intellektual va madaniy merosining muhim qismidir. Kitob jamiyatimizda yoshlarni g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan kamol topishlarida beqiyos ahamiyatga ega. Kitobxonlikni targ'ib qilish, jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun yurtboshimiz tomonidan bir qancha qonunlar ham qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2016-yil 19-oktabrida tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati- O'zbekiston Liberal demokratik partiyasining 8 syezdidagi saylov oldi ma'ruzasida bildirgan ayrim fikrlari esa ahamiyatga molikdir. Ushbu fikrlar quyidagilardir: "Ayni paytda – deydi Shavkat Miromonovich – axborot-kommunikatsiya sohasidagi so'nggi yutuqlarini o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yana-da oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilinishiga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi". Ushbu fikrlar mamlakatimiz kelajagi uchun eng muhim

bo'lgan masalalardan biridir. Bu jonkuyarlik bilan aytilgan fikrlar har bir insonning ma'lum ma'noda o'ylarga tolishiga, mulohaza qilishga hamda kitobning hayotimizdagi o'rni va shu kitob orqali biz qanchalik baland cho'qqilarni zabit etishimiz mumkinligi haqida fikrlashga, anglab yetishga chaqiradi. Ushbu fikrlardan so'ng muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik ma'daniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish" to'g'risida (2017-yil 12-yanvarida) gi farmoyishi e'lon qilindi. Mazkur farmoyish kitobxonlik ma'daniyatining jamiyat hayotidagi ro'li yana bir bor eng muhim masalalardan ekanligini yaqqol isbotlab beradi. Mamlakatimizda yoshlar o'rtasida kitobxonlik ma'daniyatini oshirish maqsadida bir qancha qarorlar ishlab chiqildi. Jumladan Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi No 781-tonli qarori bilan 2020-2025-yillarda kitobxonlik ma'daniyatini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash milliy dasturi ishlab chiqildi. Ushbu milliy dasturni 3 bosqichda amalgalash oshirish ko'zda tutilgan. 1-bosqich-2020-2021 yillarda kitobxonlik ma'daniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mehanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amlaga oshirish. 2-bosqich-2022-2023 yillarda yoshlarning kitobxonlikga oid infratuzilmani mustahkamlash, 3-bosqich-2024-2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik ma'daniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash kabi muhim mezonlar belgilangan. Ushbu qarorlar orqali o'sib kelayotgan yosh avlodning mutolaa madaniyatini yuksaltirish, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan kamolotga yetkazish, dunyoqarashlarini kengaytirishga hamda rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlardan tashkil etish kabi muhim vazifalar ko'zda tutilgan. Bulardan biri yaqin yillarda ishlab chiqilgan mutolaa ilovasidir. Mutolaa-O'zbekiston Respublikasi Yoshlar Ishlari Agentligining kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihasi sanaladi. Loyihaga Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev tomonidan 2024-yilning boshida asos solingan. 2023-yil 15-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga yoshlar siyosatida

amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar bo'yicha hisobotda "Mutolaa" loyihasidan foydalanadigan foydalanuvchilar sonini 1,5 million nafarga yetkazilishi belgilangan. Loyihadan hozirgi paytda 1,4 milliondan ortiq foydalanuvchilar foydalanishmoqda. 4000 ga yaqin kitoblarning elektron hamda audio shakllari joylangan. Mutolaa loyihasining yoshlarga berayotgan yana bir imkoniyatlardan biri eng ko'p kitob o'qigan yoshlarni aniqlab ularga avtomashina sovg'a qilish ham rejalashtirilgan. Jumladan, Jek Londonning "Martin Iden" asarini barcha yoshlarga o'qishga tavsiya etgan bo'lardim. Ushbu asar qahramoni bo'lgan Martin Iden timsolida o'z maqsadlarimiz yo'lida ko'plab mag'lubiyatlarga uchrasak-da, o'z orzularimizdan voz kechmasdan harakat qilishni o'rgatadi. Asar qahramoni bo'lgan Martin Iden oddiy oiladan chiqqan yozuvchi yigit bo'ladi. Martin o'z ustida ishlab doimo harakatda bo'lar va o'z orzulariga tezroq erishish maqsadida hatto-ki uyqu vaqtini ham besh soatlik rejimga o'tkazib oladi. Martin Iden yozgan maqolalari ko'plab nashriyotlar tomonidan rad etilsa-da, u o'z shijoatini aslo so'ndirmaydi. Asar so'ngida esa Martin barcha orzulariga erishadi. Jek London qalamiga mansub "Martin Iden" asari bizga qilgan qattiq mehnatlarimizdan so'ng albatta, hayotimiz yana-da go'zallashishini ko'rsatib beradi. Shuningdek, kitoblar bizga o'z orzularimizga hech qachon kech bo'lmasligini ham o'rgatadi. Jumladan Somersuet Moemning "Oy va sariq chaqa" asari bizga orzularni amalga oshirish hatto keksalik vaqtimizda ham kech bo'lmasligini o'rgatadi. "Oy va sariq chaqa" asari bosh qahramoni Charl Striklend yoshligida buyuk rassom bo'lishni orzu qiladi. Lekin u orzusini yoshlik davrida amalga oshirolmaydi. Ammo asar qahramoni bo'lgan Charlz Striklend oilali farzandli bo'lib, yoshi ancha keksayib qolgandan so'ng, o'z orzusiga yetishish hayotidagi barcha narsalardan hatto-ki oilasidan ham voz kechib ketadi. Striklendning o'z orulari yo'lida ayoli, bolalaridan ham voz kechib ketishi bizni hayratda qoldirmasdan qolmaydi. Bu orqali esa Striklendning o'z orzularining kuchi va uning qatiyatini ko'rishimiz mumkin. Chunki o'z yaqinlari ayniqsa bolalaridan voz kechishi aslida oson ish emas. Uning orzusi hech qachon mashhur bo'lish bo'lmagan u shunchaki umrining so'ngida o'zi

istagan kasb bilan shug'ullanishni hohlagan. Somersuet Moemning "Oy va sariq chaqa" asari bizga orzularimiz uchun kurashishimiz hamda o'zimiz sevgan kasb bilan mashg'ul bo'lishimiz kerkaligini va bu orqali baxtli yashashimiz mumkinligini o'rgatadi. Kitoblar-bu o'zgarishlar va muvaffaqiyat sari yo'l ko'rsatadigan eng yaxshi yo'riqnomadir. Kitoblardagi ba'zi asar qahramonlari tilidan aytilgan so'zlari muvaffaqiyatsizliklardan so'ng qayta tiklanish, salbiy holatlarni ijobiy tomonga o'zgartirishni o'rgatadi. Jumladan, Shahodat Ulug'ning "Xaloskor Sulton Sayfiddin Qutuz" asarida asar qahramoni bo'lgan Sayfiddin Qutuzning onasi tomonidan o'g'li Sayfiddinga "Yiqilsang ming karra kuchga do'nib tur" degan gaplarini biz yoshlar ham o'zimizga shior qilib olsak bo'ladi. Darhaqiqat, biz orzularimiz yo'lida yengilsak-da, yana o'zimizda qaytadan kuch topib harakat qilishimiz lozim.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa chiqadiki, kitob o'qigan inson hech qachon kam bo'lmaydi. Zero, Imom Zarnujiy aytganlaridek "Ilmning sharafi uug'ligiga hech shubha yo'qdir" degan so'zlarni bejizga aytmaganlar. Kitob o'qigan yoshlar hech qachon mag'lub bo'lmaydilar, ular doimo g'olibdirlar. Bugungi kunda kitobxonlikga targ'ib qilish uchun tashkil etilagan ko'plab tanlovlarni tashkil etilishi esa, biz yoshlarning kitobga bo'lgan muhabbatimizni ortishiga sabab bo'lmoqda, hamda bu orqali esa, yosh avlodning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va ularning ruhiy hamda ma'naviy olamlarini boyishi uchun xizmat qilmoqda.

#### **Adabiyotlar ro'yhati:**

1. Jek London. Martin Iden. Ruschadan Qodir Mirmuhamedov tarjimasi.  
[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
2. Somersuet Moem. Oy va sariq chaqa. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
3. Shahodat Ulug'. Xaloskor Sulton Sayfiddin Qutuz. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
4. Imom Zarnujiy. Ilm olish sirlari. Zokirjon Sharifov tarjimasi.  
[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.